

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

32-mavzu: “Innovatsion fikrlash”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda yangicha, ijodiy va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar, raqamli tafakkur va yangilik yaratishga bo‘lgan qiziqishni oshirish.

Annotatsiya: Ushbu mashg‘ulot davomida o‘quvchilar innovatsion fikrlash mohiyatini anglaydilar, oddiy fikrlashdan farqini tushunadilar, turli vaziyatlarda kreativ yechim topish ko‘nikmalarini mashq qiladilar. “Kreativlik”, “yangilik”, “g‘oya”, “startup”, “innovatsiya” tushunchalari bilan tanishadilar. Dars davomida guruhli ish, muammoli vaziyatlar, videolavhalar va interaktiv o‘yinlar orqali o‘quvchilarda kelajak kasblari va texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish orttiriladi.

Aniq maqsadlar:

1. “Innovatsiya” va “ijodiy fikrlash” tushunchalarini anglash.
2. Yangicha fikrlashning ahamiyatini hayotiy misollar orqali tushuntirish.
3. O‘quvchilarda ijodiy, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.
4. Shaxsiy tashabbus va g‘oya ilgari surish, jamoada yangilik yaratish madaniyatini shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar:

- Innovatsion fikrlash – bu muammoni boshqalar ko‘rmagan yo‘ldan hal etish.
- Yangicha fikrlovchi inson o‘zgarishlarning drayveridir.
- Zamonaviy davrda har bir yosh o‘z g‘oyasini ilgari surishi, texnologik va ijtimoiy muammolarga yangicha yechim topa olishi lozim.
- Innovatsiya – kelajakni yaratish demakdir.

Kutilayotgan natijalar

1. Aqliy darajada:

- O‘quvchilar innovatsion fikrlash mohiyatini tushunadi.
- Muammolarga turli burchaklardan qarashni o‘rganadi.
- G‘oyani yechimga aylantirish jarayonini anglaydi.

2. Hissiy darajada

- O‘z fikrini erkin ifodalash, yangilik yaratishdan cho‘chimaydigan kayfiyat shakllanadi.
- Jamoada ishlash, o‘z g‘oyasiga ishonish hissi kuchayadi.

3. Amaliy darajada

- O‘quvchilar real hayotiy muammolarga innovatsion yechim taklif eta oladi.
- G‘oya va loyihani taqdim qilish (pitching) asoslarini mashq qiladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- O‘quvchilar o‘z tashabbusi va yangicha fikri orqali jamiyatga foyda keltirish zarurligini tushunadi.

Metapredmet yondashuv:

“Innovatsion fikrlash” mavzusida turli fanlararo bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi:

- **Texnologiya:** Yangi mahsulot va g‘oyalar yaratish.
- **Matematika:** Muammolarni mantiqiy tahlil qilish.
- **Adabiyot:** Fikrni badiiy ifodalash.
- **Informatika:** Raqamli fikrlash va texnologik ijod.
- **Ijtimoiy fanlar:** Inson va jamiyatdagi o‘zgarishlarni tushunish.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.

<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan shakl: Bahs-suhbat, video lavha, rolli o‘yin, jamoaviy loyiha va taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O'qituvchi bolalarga ikkita buyumni ko'rsatadi. Masalan, eski tugmali telefon va yangi zamonaviy smartfon (sinf doskasi va noutbuk, "kundalik.com" va oddiy qog'oz kundalik va hk juftliklardan foydalanish mumkin).

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, agar sizga tanlash imkoni berilsa, qaysi birini ishlatgan bo'lar edingiz?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Xo'sh, nega aynan shuni tanladingiz? Tanlovingiz qaysi jihati bilan yaxshiroq tuyuladi?

O'quvchilar fikr bildiradi: qulay, zamonaviy, vaqtni tejaydi, tez ishlaydi...

O'qituvchi: Tasavvur qiling: telefon, internet, kompyuter kabi bugun biz kundalik foydalanadigan qulayliklar butunlay yo'qolib qolsa, nima bo'ladi?

Bir kun internet bo'lmasa, nima qilasiz? Darsga qanday tayyorlanasiz? Do'stlaringiz bilan qanday gaplashasiz?

O'quvchilarning javoblari tinglanadi.

O'qituvchi: Demak, biz kundalik hayotda ishlatayotgan juda ko'p narsalar aslida kimningdir g'oyasi, kimningdir yangicha fikri natijasidir. Agar o'sha odamlar boshqacha o'ylamaganida, bugungi qulayliklar ham bo'lmas edi.

Bugungi darsimiz aynan shunday odamlar – innovatorlar va innovatsion fikrlash haqida. Oddiy narsani yaxshiroq qilish, hayotni osonlashtirish uchun yangilik o'ylab topish innovatsiya deyiladi.

Bugungi kunda davlatimiz innovatsion rivojlanishga juda katta e'tibor bermoqda. Prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, IT sohasini rivojlantirish bo'yicha ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozir sizlar bilan shu islohotlar aks etgan qisqa videoni tomosha qilamiz:

Vizual kontent

Innovatsiya – bizning kelajagimiz!

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/554

O'qituvchi: Demak, kelajak kimlarning qo'lida?

O'quvchilar: Bizning qo'limizda!

O'qituvchi: Unda kelajak uchun innovatsiyalar haqida gaplashamiz.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Innovatsiya nima?

Oddiy qilib aytganda, innovatsiya bu yangi g'oya, yangi yechim yoki mavjud narsani yanada qulayroq, tezroq va samaraliroq qilishdir.

Bu faqat yangi narsani o‘ylab topish emas, balki uni hayotda ishlatish ham.



Masalan, siz ruchka o‘ylab topmadingiz, lekin agar uni yanada qulayroq qiladigan usul topsangiz, bu ham innovatsiya bo‘ladi. Avvallari odamlar ruchkani siyohga botirib yozishar edi, bu noqulay edi (siyoh tomardi, vaqt ketardi, fikr uzilardi), keyin kimdir sharikli ruchkani o‘ylab topdi va o‘quv qurolini yaxshiroq qildi. Mana shu innovatsiyadir.

Innovatsion fikrlash bu boshqalardan farqli o‘ylash qobiliyatini taqozo qiladi. Bir muammoga boshqacha qarash, “buni yana qanday yaxshilash mumkin?” degan savolni berish orqali innovatsion fikrlashga yo‘l ochiladi. Bugungi zamonaviy dunyoda aynan shu ko‘nikma eng muhim hisoblanadi. Chunki bugun bilimning o‘zi yetarli emas, uni taraqqiyot uchun qo‘llash juda muhim.

Endi real misollarni ko‘ramiz. Avvallari odamlar oddiy telefonlardan faqat qo‘ng‘iroq qilish uchun foydalangan. Bugun esa smartfon orqali dars ham qilamiz, to‘lov ham qilamiz, hatto biznes ham yuritamiz.

Avvallari hujjatlar qo‘lda yozilar, tartibga solish qiyin bo‘lardi. Hozir esa kompyuter va printerlar yordamida hammasi tez va aniq bajariladi.

Maktablarda “eMaktab” tizimi orqali baholar qo‘yilmoqda, vazifalar berilmoqda.

Zamonamizning eng yangi va eng shov-shuvli, eng tez va keng tarqalayotgan innovatsiyasi nima? Kim aytadi? Qani?

O‘quvchilar: Sun‘iy intellekt!

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri, sun‘iy intellekt. Bugun u matn yozadi, rasm chizadi, hatto savollarga javob beradi. Bu ham innovatsion fikrlashning natijasi.

Keling, hozir mavzuyimizni ochib beradigan bir videoni tomosha qilamiz. Unda kundalik hayotimizni qulaylashtirgan innovatsiyalar haqida so‘z boradi.

Vizual kontent

Ixtirolar hayotimizni qay darajada o'zgartirdi?

<https://youtu.be/S79QjBUH24g>

O'qituvchi: Sizlarda noto'g'ri tushuncha paydo bo'lmasin: innovatsiya bu shunchaki yangi texnika degani emas. U inson tafakkuridan boshlanadi. Har qanday katta kashfiyot oddiy savoldan tug'iladi. "Nega bunday?", "Qanday qilib buni yaxshilash mumkin?", "Bundan odamlarga nima foyda keladi?" kabi savollar dunyoni o'zgartirgan.

Global dunyoda kimdir biror yangilik o'ylab topsa va u insoniyatga foyda keltirsa, buning xabari bir zumda keng yoyiladi. Shu sababli bugun siz tengi yoshlar Stiv Jobs, Mark Sukerberg, Pavel Durov, Jeyms Dayson kabi insonlarning nomini yaxshi bilasiz. Ular shou-biznes yulduzlari, kinoaktyorlar va sportchilar kabi mashhur va badavlat insonlar. Ularni bu darajaga olib chiqqan esa aynan yangi g'oyalari, innovatsiyalari va bulardan insoniyatga katta foyda kelayotganidir.

Masalan, Stiv Jobs. U oddiy telefonni butunlay yangi darajaga olib chiqdi. Telefonni faqat aloqa vositasi emas, balki hayotimizning ajralmas qismiga aylantirdi.

Yoki Mark Sukerberg. Bugun u egalik qiladigan Meta (Facebook) platformasi qanchadan qancha insonlarni ishli va daromadli qilyapti.

Yoki Bill Geytsni olaylik. U kompyuterlarni oddiy odamlar uchun qulay va foydalanishga oson qildi.

Jeyms Dayson yaratgan soch staylerini esa qizlarimiz yaxshi bilishadi: u dunyodagi millionlab ayollarning vaqti va mablag'ini tejayapti.

Agar shu insonlar oddiy fikrlaganida edi, bugungi dunyo boshqacha bo'lardi.

O'ylamangki, mashhur innovatorlar faqat xorijdan yetishib chiqadi deb. Bugun o'zimizda ham yangicha fikrlash orqali yangiliklar qilishga intilayotgan yoshlar ko'p. Hozir ulardan biri bilan suhbatni tomosha qilamiz.

Chikago universitetiga to'liq grant asosida o'qishga qabul qilingan hamyurtimiz Nuraziz Ungboyev o'z tajribasi misolida innovatsion fikrlash formulasini tushuntirib beradi.

Vizual kontent

Chikago universiteti talabasidan innovatsion fikrlash formulasi

<https://youtu.be/maGAcDHAq7E>

O'qituvchi: Biz sizlar bilan "Startaplar" mavzusida gaplashganimizda innovatsion fikrlash haqida ham qisqa to'xtalgan edik, esingizda bo'lsa. Bugungi kunda kreativlik, innovatsiyalar va startap so'zlari yonma-yon kelyapti.

Doskaga yozadi.

Kreativlik – Innovatsiya – Startap

O‘qituvchi: Endi muhim savol: kreativlik, innovatsiya va startap o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?

Kreativlik bu g‘oya. Ya’ni siz o‘ylaysiz, tasavvur qilasiz va qandaydir yangi g‘oyani topasiz. Masalan, zaryadi bir haftagacha yetadigan telefon odamlarning vaqtini va elektr tokini tejaydi, shunday telefon yarataman degan g‘oya o‘ylaysiz. Lekin bu hali g‘oya, xolos.

Innovatsiya esa shu g‘oyani amalga oshirishdir. Ya’ni siz hamma qiyinchiliklar, xatolardan o‘tib, tajribalar qilib shunday telefonni yasab stolga qo‘ysangiz – shu innovatsiya bo‘ladi.

Startap esa bu g‘oyani biznesga aylantirish. Ya’ni shu bir nusxa telefonni million nusxalarda chiqarib sota olsangiz va shundan daromad topsangiz – shu startap bo‘ladi.

Demak, birinchi kreativlik, keyin innovatsiya, undan keyin startap keladi. Bu uchlik bir zanjirga o‘xshaydi.

Endi esa bir o‘yin o‘ynaymiz.

Interaktiv o‘yin: “G‘oya → Innovatsiya → Startap”

O‘qituvchi: Siz oddiy narsani olasiz, unga yangi g‘oya qo‘shasiz, keyin uni haqiqiy mahsulotga aylantirasiz va oxirida undan qanday pul ishlash mumkinligini aytasiz.

Ya’ni siz hozir kichik innovator va tadbirkorga aylanasiz.

1-bosqich: G‘oya (tez va oddiy)

O‘qituvchi oddiy buyumni aytadi:

- ruchka
- daftar
- sumka
- kundalik

Masalan, oddiy ruchkani olaylik. Uni qanday yangilash mumkin?

O‘quvchilar fikr aytadi.

2-bosqich: Innovatsiya (eng muhim qism)

O‘qituvchi: Bu g‘oya qanday ishlaydi? Qanday foyda beradi? Kimga kerak?

Masalan, daftarga yozganlaringizni telefonga o‘tkazadigan ruchka g‘oyasi. Bu g‘oya haqiqatan ishlasa va vaqtni tejasa, innovatsiyaga aylanadi.

Demak, g‘oya – bu fikr. Innovatsiya esa shu fikrning amalda ishlaydigan yechimga aylanishi.

3-bosqich: Startap

O'qituvchi: Endi tasavvur qiling, siz bu mahsulotni sotmoqchisiz. Kinga sotasiz? Qanday qilib pul topasiz?

O'quvchilar o'ylay boshlaydi.

O'qituvchi: Masalan, shu aqlli ruchkani sinfimizdagi o'quvchilarga sotish mumkin. Yoki internet orqali butun dunyoga sotish ham mumkin.

O'yin formati juda sodd. Har bir o'quvchi yoki kichik guruh quyidagilarni qiladi:

1. Bitta oddiy buyumni tanlaydi
2. Uni yangilaydi (g'oya)
3. Qanday ishlashini aytadi (innovatsiya)
4. Kinga va qanday sotishini aytadi (startap)

Har bir chiqish 20-30 soniya.

O'qituvchi: Agar hech kim sotib olmasa-chi? Nimani o'zgartirasiz?

Bu savol o'quvchini yanada chuqurroq o'ylashga majbur qiladi.

O'qituvchi: Hozir sizlar juda katta jarayonni kichik ko'rinishda bajarib ko'rdingiz. Har qanday katta kompaniya ham aynan shunday boshlanadi. Oddiy g'oya bilan.

Farqi shundaki, kimdir ma'lum bir yerga yetib to'xtaydi. Kimdir esa davom etadi. Innovatorlar – aynan to'xtamay davom etgan kreativ insonlardir.

Hozir sizlar bilan innovatorlarni tarbiyalaydigan makonga videosayohat qilamiz. Monitorga diqqat qaratishingizni so'rayman.

Vizual kontent

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga keldik

<https://youtu.be/-ZiUcSErPA0>

O'qituvchi: Mana sizlarga yana bir marra: maktabda yaxshi o'qib, chet tillarini o'rganib mana shunday zo'r universitetlarga kirishingiz mumkin. U yerda o'z g'oyalaringizni innovatsiyaga va startapga aylantirishni o'rgatishadi. Ajab emaski, sizlar ham olamshumul ixtirolar qilib, Nobel mukofotlarini olsangiz. Bugun ilmi insonlarga hech qanday chegaralar yo'q, imkoniyatlar esa juda ko'p. Shunday ekan, g'oyalar o'ylab topishdan charchamang.

Endi esa keyingi savolga o'tamiz.

Innovatsion fikrlashni qanday rivojlantirish mumkin?

Birinchiidan, ko'proq savol berish kerak. "Nega bunday?", "Boshqacha bo'lishi mumkinmi?"

Ikkinchiidan, xatodan qo'rqmaslik kerak. Har bir xato bu yangi o'rganish imkoniyati.

Uchinchidan, ko'p o'qish va kuzatish kerak. Kitob, video, tajriba – bular tafakkurni kengaytiradi.

To'rtinchidan, muammolarni imkoniyat sifatida ko'rish kerak. Har bir muammo ichida yangi g'oya yashiringan bo'ladi.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Bugungi darsdan qanday xulosa chiqarishimiz kerak?

Innovatsiya – bu kelajak kaliti. U faqat texnika emas, balki fikrlash tarzidir. Innovatsion fikrlash esa har bir insonda bo'lishi mumkin bo'lgan qobiliyat sanaladi. Eng muhimi, savol berishdan to'xtamaslik kerak.

Ehtimol, kelajakdagi eng katta kashfiyot aynan sizning fikringizdan boshlanar. Balki siz ixtiro qilgan narsa minglab odamlarning hayotini o'zgartirar.

Uyga vazifa: Har biringiz “Mening innovatsion g'oyam” degan mavzuda kichik loyiha o'ylab kelasiz. Bu real muammoni hal qiladigan g'oya bo'lsin. Masalan, maktabdagi, uyda yoki jamiyatdagi muammoni tanlang va unga innovatsion yechim taklif qiling.

Agar siz bugun bir savol berishni boshlasangiz, ertaga dunyoni o'zgartiradigan javobni topishingiz mumkin.

Shu bilan darsimiz nihoyasiga yetdi. Xayr, salomat bo'ling.